

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

#### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**S.MAHMUDOVA**

<b>“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir” .....</b>	6
	<b>PEDAGOGIKA</b>

**X.Kadirov, B.Xamdamov**

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati .....	8
---------------------------------------------------------------------------------------------	---

**L.Yo‘Idosheva**

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	13
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**M.Alimjanova**

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari .....	17
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**B.Xaydarov**

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
------------------------------------------	----

**G.Absalamova**

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
-----------------------------------------------------------------------------	----

**F.Mirzayeva**

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
----------------------------------------------------------------------	----

**IQTISODIYOT****T.Xaydarov, B.Karimov**

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi .....	36
------------------------------------------	----

**FALSAFA, SIYOSAT****N.Hakimov, D.Amridinova**

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---------------------------------------------------	----

**I.Raximov**

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	48
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**R.Isamutdinov**

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
------------------------------------------------------	----

**S.Xoliqov**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari .....	57
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**TARIХ****M.Xurramov**

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari .....	61
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**R.Arslonzoda**

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi .....	69
-----------------------------------------------------------------------------------	----

**I.G‘ulomov, Z.Kasimova**

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish .....	76
-------------------------------------------------	----

**G.Haydarov**

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi .....	83
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**G.Dadamirzayeva**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati .....	88
-------------------------------------------------------------------------------------------	----

**A.Aduvali**

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
------------------------------------------------------------------------------------------	----

**N.Komilov**

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

**M.Darmonova**

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

**L.Sokolova**

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari .....	107
----------------------------------------------------------------------	-----

**O.Zaripov**

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi .....	113
----------------------------------------------------------------------------	-----

**1991 - 2016 YILLARDA O'ZBEKISTON-QOZOG'ISTON MUNOSABATLARIDA  
MARKAZIY OSIYO INTEGRATSİYASI MUAMMOLARI**

**ПРОБЛЕМЫ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ  
В УЗБЕКСКО-КАЗАХСТАНСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В 1991-2016 ГОДАХ**

**PROBLEMS OF CENTRAL ASIAN INTEGRATION IN UZBEK-KAZAKH RELATIONS IN  
1991-2016**

**Xurramov Musurmon Keldiyorovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Xurramov Musurmon Keldiyorovich**

– O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'llimni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi bosh mutaxassisi.

**Annotatsiya**

*Maqola mustaqillik yillarda O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlarda mintaqaviy integratsiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur yo'nalişda ikkala davlat tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar, vujudga kelgan muammolar, tashqi kuchlarning aralashuvি, Markaziy Osiyo integratsiyasining tarqalib ketishi hamda integratsiya jarayonlarida ikkala davlat yetakchilarining tutgan o'mi kabi mavzularda so'z yuritiladi. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya masalalarida ikkala davlatning yondashuvlariga asosiy e'tibor qaratiladi.*

**Аннотация**

Статья посвящена вопросам региональной интеграции в узбекско-казахстанских отношениях в годы независимости. В ней обсуждаются усилия двух стран в этом направлении, возникшие проблемы, вмешательство внешних сил, распад центральноазиатской интеграции и роль лидеров двух стран в интеграционном процессе. Особое внимание будет также уделено подходам обеих стран к региональной интеграции.

**Abstract**

*The article is devoted to the issues of regional integration in the Uzbek-Kazakh relations in the years of independence. It discusses the efforts of the two countries in this direction, the problems that have arisen, the intervention of external forces, the collapse of Central Asian integration and the role of the leaders of the two countries in the integration process. Particular attention is also paid to the approaches of both countries to regional integration.*

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, integratsiya, tashqi kuchlar, virtual regionalizm, Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti, Orolni qutqarish halqaro jamg'armasi, Yevro-Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati, Markaziy Osiyo Davlatlari Ittifoqi.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, интеграция, внешние силы, виртуальный регионализм, Организация Центральноазиатского сотрудничества, Международный фонд спасения Арала, ЕврАзЭС, Союз государств Центральной Азии.

**Key words:** Central Asia, integration, external forces, virtual regionalism, Organization of Central Asian Cooperation, International Fund for Saving the Aral Sea, EurAsEC, Union of Central Asian States.

**KIRISH**

Markaziy Osiyoning lokomotiv davlatlari O'zbekiston va Qozog'iston mustaqillikning dastlabki yillaridayoq boshqa sohalar singari mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham jiddiy e'tibor qaratdi. "Bunga ikkala davlatni faqat jo'g'rofiy yaqinlikkina emas, tarixiy, etnik, til, madaniyat, diniy mushtaraklikkina emas, shu bilan birga faqat birgalashib, mustaqlam hamkorlikda hal qilish mumkin bo'lgan umumiyl iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik muammolarning ko'pligi ham undayotgan" [1] edi. Ammo O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlarda mintaqaviy hamkorlik jarayonlari bir qancha obyektiv sabablarga ko'ra silliq kechmadi. Integratsion hamkorlik dinamikasi tebranib turdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'rganilayotgan mavzu ko'lami jihatidan keng qamrovli bo'lib, bugungi kunga qadar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mahalliy olimlar I.Bobokulov [2], B.Islamov [10], F.Tolipov [20], Ch.Ko'charov [25] ning asarlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlarning vujudga kelishi va rivojanish bosqichlari haqida batafsil so'z yuritilgan. Mahalliy olimlar bilan bir qatorda xorijiy olimlar ham mazkur mavzuning ayrim jihatlari xususida ilmiy

izlanishlar olib borishgan. Xususan, K.Zatulin va A.Migranyan [6], M.Laruelle va S.Peyrouse [8], Roy Allison [15] kabi olimlar Markaziy Osiyo integratsiyasi inqirozi sabablari to'g'risida to'xtalib o'tishgan.

Mazkur maqolani tadqiq etish jarayonida kontent, ivenit, induksiya, deduksiya, dinamik modellashtirish va tarixiy hujjatlarni o'rganish kabi ilmiy metodlardan unumli foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, integratsion aloqalar hali Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishmasdan turib boshlangan edi. 1990-yilning yozida Qozog'iston poytaxti Almati shahrida mintaqqa rahbarlari Moskvaning ishtirokisiz birinchi bor mintaqaviy hamkorlik masalasida uchrashuv o'tkazadilar. Mazkur uchrashuvda mintaqqa liderlari siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish bo'yicha kelishib oladilar[2]. Almati uchrashuvi kun tartibidagi asosiy masala iqtisodiy muammolarga birgalikda yechim topishdan iborat edi. Uchrashuvda madaniyat, ta'lim va atrof-muhitni himoya qilish borasidagi umumiy muammolarni hal etish bo'yicha mintaqaviy kengashlar tuzish borasida taklif ilgari suriladi.

Almati uchrashuvining mantiqiy davomi sifatidagi mintaqqa rahbarlarining ikkinchi uchrashuvi 1991-yil avgust oyida Toshkentda bo'lib o'tadi. Ta'kidlab o'tish kerakki, mintaqqa liderlarining ikkinchi uchrashuvi ham Moskvaning ruxsatisiz amalga oshiriladi. Mintaqqa davlatlari o'zaro hamjihatlikda Markaziy Osiyo hududida vujudga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etish borasida kelishib oladi. Mintaqqa davlatlari rahbarlarining keyingi uchrashuvi 1991-yil 12-dekabrda Turkmanistonning Ashxobod shahrida bo'lib o'tadi. Bu uchrashuv qolgan ikkala uchrashuvdan tubdan farq qiladi. Bu vaqtda SSSR davlati parchalanib ketganligi sababli mazkur uchrashuvning kun tartibida butunlay boshqa vazifalar o'rin egallaydi.

Mintaqqa davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi 1992-yil 23-aprelda Bishkek shahrida tashkil etildi. Bu uchrashuvning boshqalaridan farqli jihat shundaki Tojikiston tomoni mazkur uchrashuvda ishtirok etolmaydi. Sababi Tojikistondagi ichki vaziyat nihoyatda tang ahvolda bo'lib fuqarolar urushi boshlanishi arafasida edi. Ushbu uchrashuvda Tojikistonning ishtirok etolmasligi Markaziy Osiyo mintaqasida jadal sur'atlar bilan boshlangan integratsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari Turkmaniston o'zini 1995-yil 12-dekabrda "doimiy neytral" davlat sifatida e'lon qilishi oqibatida mintaqadagi integratsiya aloqalari yanada og'irlashdi. Shunga qaramay Markaziy Osiyo mintaqasida nisbatan ko'proq salohiyatga ega O'zbekiston va Qozog'iston integratsiya munosabatlari jadallashtirishga harakat qildi.

1993-yilning iyul oyida Qozog'iston bilan O'zbekiston o'rtaida 1994 – 2000 yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi bitim imzolanadi[3]. 1994-yilning yanvarida tomonlar Yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risidagi shartnomaga imzo chekishadi (aprel oyida mazkur shartnomaga Qirg'iziston Respublikasi ham qo'shiladi). Davlatlar o'rtaidagi hamkorlikni jadallashtirish borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashitish maqsadida Ijroiya qo'mita tuziladi. Davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Markaziy Osiyo Hamkorlik va taraqqiyot banki ta'sis etiladi. Ana shu organlarning ishi natijasida Bishkekda Respublikalar Bosh vazirlari kengashi qarori imzolanadi. Unda tomonlar 2000-yilga qadar respublikalarni iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirishning yo'nalishlarini, shartnomada ishtirok etuvchi davlatlar halq xo'jaligi majmularini rivojlantirishning ustuvorligini hisobga olib, birinchi navbatda amalga oshiriladigan sarmoya sarflash va ob'ektlarni barpo etish loyihalarini aniqlashtirib olishadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, 1994-yilda tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari hamdo'stligida ayniqsa O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining alohida o'rni bor edi. Hamdo'stlikning istiqbolda taraqqiy etishi ko'p jihatdan mazkur ikki respublika o'rtaidagi munosabatlarning qanday rivojlanishiga bog'liq bo'lgan. Chunki O'zbekiston ham, Qozog'iston ham mintaqada katta salohiyatga ega davlatlar hisoblanardi. O'zbekiston va Qozog'iston quyidagi yo'nalishlardagi sa'y-harakatlarini birlashtirishlari talab etilardi. Ular sirasiga bozor munosabatlariiga o'tish davrida mintaqqa aholisini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal etish, iqtisodiy va moliyaviy sohada o'zaro kelishilgan siyosat yuritish, yagona boj qoidalari va soliq tizimlarini ishlab chiqish kabilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari yagona axborot va mudofaa makonini tashkil etish masalasi ham kun tartibiga chiqadi. Umuman olganda O'zbekiston va

## TARIX

Qozog'iston Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion aloqalarni rivojlantirishda yetakchi rol o'yashga harakat qilishgan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlari o'ttasidagi iliq munosabatlarning jadal rivojlanishi ayrim davlatlar uchun maqbul bo'limgan. Turon zamini halqlarining qayta birlashishini o'z manfaatlariga xilof deb bilgan ayrim kuchlar mintaqadagi mustaqil davlatlar o'ttasiga nifoq solishga, adovat urug'larini sepishga harakat qilgan. Bunga yetarli darajada bahona topolmagandan so'ng har xil yolg'on axborotlarni tarqatishga uringan. Xususan[4], "Nezavisimaya gazeta"sining 1993-yil 13-may sonida V.Yurtayev va A.Shestakovning "Osiyo gazi Yevropaga boradi" maqolasida Markaziy Osiyo davlatlari hamdo'stligi tashkil etilishini Rossiyadan ko'proq iqtisodiy yordam olish niyatida unga tazyiq o'tkazish uchun tuzildi, deb yozadi. Bunga qo'shimcha tarzda O'zbekiston Qирг'изистонда yashayotgan 800 ming o'zbeklarning manfaatlarini himoya qilish bahonasida u yerga bostirib kirishni mo'ljalamoqda degan yolg'on xabar tarqatishadi.

Shunga o'xshash yolg'on ma'lumotlarni tarqatayotganlarga javoban O'zbekistonning birinchi Prezident I.Karimov qozoq halqining uch buyuk biyi xotirasiga bag'ishlangan tantanalarda so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Biz do'stligimizga putur yetmasligi uchun har xil qo'poruvchilarning yolg'on va'dalariga uchmasligimiz kerak"[5]. Ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo mintaqasida vujudga kelayotgan integratsion jarayonlar bir necha sabablarga ko'ra Rossiyaning manfaatlariga zid bo'lgan. Birinchidan, sobiq Sovet Ittifoqi davrida shakllangan Markaziy Osiyo bozori asta-sekinlik bilan rivojlangan davlatlarning tovarlari bilan to'layotgan edi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari mintaqada vujudga kelayotgan konfliktlarni kuchlarning aralashuviziz hal etishga urinishi oqibatida Rossiyaning mintaqadagi harbiy ishtiroki o'z-o'zidan susayib borayotgan edi. Uchinchidan, O'zbekiston Ozarbayjon, Gruziya va Ukraina bilan kelishgan holda Rossiyanı aylanib o'tadigan muqobil transport korridori(TRASEKA)ni yaratishga urinishi Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlarini tiyib turadigan to'g'ridan-to'g'ri richaglarini yo'qqa chiqarayotgan edi. Shu sababli Rossiya har qanday usullardan foydalanib bo'lsada Markaziy Osiyo davlatlarining integratsion aloqalariga rahna solishga harakat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, Rossiya Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan norozilik kayfiyatini ochiqdan-ochiq bayon qilishga o'tgan. Rossiya ommaviy axborot vositalarida mintaqalarning nisbatan bildirilgan salbiy fikrlar birin-ketin yangray boshlaydi. Bu borada Rossiyaning "Nezavisimaya gazeta"si yaqqol yetakchilikni qo'lga oladi. Mazkur gazetaning 1997-yil 26-martida chop etilgan sonida shunday deyiladi: "Markaziy Osiyo Respublikalarida har qanday yo'nalishdagi bloklarning mavjudligi Rossiyaning milliy manfaatlariga javob bermaydi. 1994-yilda tuzilgan Markaziy Osiyo Ittifoqi ko'p jihatdan Rossiyaga qarshi yoki bo'lmasa Rossiya uchun potensial xavflı integratsiya hisoblanadi. Shuning uchun, Rossiya o'z ta'sirining barcha imkoniyatlaridan foydalanib, paydo bo'layotgan blokni (Markaziy Osiyo Ittifoqi) buzishga, uni bo'linishiga va mintaqalararo raqobatni kuchaytirishga e'tiborini qaratishi kerak[6]". Ko'rinish turibdiki, "Katta og'aga" Markaziy Osiyo davlatlari Rossiyaning manfaatlariga zid mustaqil siyosat yuritishi unchalik ham maqbul bo'limgan.

Ammo yuqorida ta'kidlab o'tilgan qiyinchiliklarga qaramay Markaziy Osiyo davlatlari integratsion aloqalarda bir qancha yutuqlarga ham erishganini alohida qayd etish lozim. Bu yutuqlarga quyidagilarni kiritish mumkin[7]:

1. Orolni qutqarish halqaro jamg'armasi tashkil etilgan. Mazkur jamg'arma 1993-yilda Markaziy Osyoning besh davlati rahbarlari tomonidan Orol dengizi bilan bog'liq loyihalarga mablag' jalb qilish va transchegaraviy suvlardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va nazoratini kuchaytirish maqsadida tuzilgan. Bu Sovet Ittifoqi tarqalib ketgandan keyingi davrdagi birinchi Markaziy Osiyo mintaqaviy instituti edi[8];

2. Davlat rahbarlari 1997-yil dekabrda Qozog'istonning Aqmola shahrida energetika, oziq-ovqat va minerallar bo'yicha halqaro konsorsium tuzish to'g'risida kelishib oladilar;

3. O'zbekiston va Qozog'iston o'ttasida 1996-yil "Abadiy do'stlik to'g'risida" bitim imzolanadi. Qирг'изистон mazkur bitimga 1998-yil qo'shiladi;

4. 1995-yil dekabrda BMT sha'feligida Markaziy Osiyo tinchlikparvar bataloni tuziladi;

5. Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli zonani barpo etish to'g'risidagi Sharhnomalarining mintaqalarning 2006-yilning 8-sentyabrida Semipalatinsk shahrida imzolanadi.

Mazkur tashabbus Prezident Islom Karimov tomonidan 1993-yil 28-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ilgari surilgan edi[9]. 1997-yil 28-fevral kuni mintaqaning 5 davlati rahbarlari Qozog'istonda bo'lib o'tgan uchrashuvda hamjihatlik bilan yadro quroldan xoli zona yaratish haqidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda Olmaota Deklaratsiyasiga imzo chekdilar. Mazkur hujjat yadro qurolini tarqatmaslik yo'nalishida siyosiy ishonch muhitini yaratdi. Aynan o'sha davrdan Markaziy Osiyo – yadro quroldan xoli zona g'oyasi mintaqaning barcha besh davlati va ular hududida istiqomat qiladigan halqlarning umumiy xohish va istaklarini aks ettirgan keng qamrovli mintaqaviy tashabbusga aylandi.

6. 1998-yil mart oyida Markaziy Osiyo Ittifoqiga Tojikiston rasman a'zo bo'lib kiradi. Ma'lumki, bu davrda Tojikistonda fuqarolar urushi o'z nihoyasiga yetgan edi.

Ma'lumki, integratsion aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida 1998-yil Qирг'изистонning Cho'lonota shahrida Markaziy Osiyo davlati rahbarlari Markaziy Osiyo Ittifoqini qayta nomlashga kelishib oladilar. Yangi tashkilot Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati nomini oladi. Rossiya, Gruziya va Turkiya kuzatuvchi maqomiga ega bo'ladilar. Ammo aynan shu davrdan boshlab Markaziy Osiyo integratsiyasi darz keta boshlaydi. Chunki, 1998-yil Qирг'изистон Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib Halqaro Savdo Tashkilotga a'zo bo'lib kiradi. Natijada Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatining qolgan uch vakili O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston Qирг'изистонга nisbatan savdo siyosati, soliq va bojxona tartib-taomillarini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ayniqsa O'zbekiston va Qozog'iston Qирг'изистондан kirib kelayotgan re-eksport tovarlardan o'z ichki sanoatini himoya qilish maqsadida cheklovchi chora-tadbirlarni qo'llashga majbur bo'ladil[10]. Bu ham yetmagandek mintaqadagi integratsiyaning oyog'iga bolta urgan ikkinchi bir masala paydo bo'ladil. 1999-yil 26-fevralida Markaziy Osyoning uch davlati Qozog'iston, Qирг'изистон va Tojikiston Rossiya va Belarus bilan birgalikda Bojxona Ittifoqi to'g'risidagi shartnomani imzolaydilar. Bu format bir yarim yil faoliyat yuritadi[11]. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan 2000-yilning 10-oktyabrida mazkur davlatlar Yevro-Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini takshkil etish to'g'risidagi shartnomani imzolaydi. Ushbu shartnomaga 2001-yilning 30-mayida kuchga kiradi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi yanada ko'proq muammolarga duchor bo'ladil.

Markaziy Osiyo hududida vujudga kelayotgan xavfsizlikka tahdidlarni hisobga olib hamda mintaqaviy hamkorlik ko'lamenti yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 2001-yil dekabr oyida Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT) deb qayta nomlashni taklif etadi. Shuningdek Toshkentda Markaziy Osiyo tadbirkorlari konferensiyasini o'tkazish tashabbusi ham ilgari suriladi[12]. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Markaziy Osyoning to'rt davlati (Turkmanistondan tashqari) 2002-yil Qozog'istonning Almati shahrida Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi shartnomani imzolaydilar.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi yangi nom olgandan keyingi davrda olimlar tomonidan ikkita fakt hamkorlik aloqalarining rivojlanishiga turki bergan omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bular sirasiga parlamentlararo va biznes munosabatlarni kiritish mumkin. 2002-yil 18-noyabrda Toshkentda MOHTga a'zo davlatlar parlamentarilarining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi[13]. Yig'ilishda ishtirokchilar milliy qonunchilikning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish muhimligini nazarda tutadigan memorandumni ma'qullaydilar, shuningdek, parlamentlararo hamkorlik instituti – Parlamentlar konferensiyasini tashkil etishga qaror qiladilar.

Kichik va o'rta biznes o'rta sidagi munosabatlар iqtisodiyotda muhim tarkibiy qism bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan 2002-yil 28-29 noyabr va 2003-yil 6-may kunlari Toshkentda (O'zbekiston) va O'shda (Qирг'изистон) bir nechta biznes forumlar bo'lib o'tadi. Mazkur uchrashuvlarda mintaqaviy biznes vakillari qo'shma loyihalarni ishlab chiqish, ularni hayotga tatbiq etish, qonunchilikni uyg'unlashtirish, savdo qoidalarini erkinlashtirish va Markaziy Osyoning turli respublikalari korxonalari o'rtaida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarini mustahkamlashning muhim ekanligini qayd etdilar[14].

Ta'kidlash joizki, 2002 – 2004-yillar davomida suv, energetika, transport, kommunikatsiya sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish, shuningdek, bojxona tartib-taomillarini bir xillashtirish va erkin savdo zonalarini tashkil etish orgali Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni vujudga keltirish borasida juda ham kam natijalarga erishildi. MOHTning rezolyusiyalari asosan deklarativ xarakterga ega bo'lib, o'ziga xos "virtual regionalizmni"[15] hosil qiladi.

## TARIX

2004-yil 17 – 18 oktyabr kunlari Tojikistonning Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan MOHT davlat rahbarlari Kengashining majlisida Rossiya mazkur tashkilotga a’zo bo‘lib kiradi. I.Karimov Rossiyaning MOHTga qo‘shilishini ob’ektiv va tabiiy jarayon deb baholaydi[16]. Shuningdek, Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konflikt holatlarini bartaraf etishni kafolatlovchi davlat sifatida ko‘riladi. Ammo Rossiya kutilgan natijani bermaydi. Aksincha mintqa davlatlari o‘rtasida turli xil ziddiyatlarni paydo qilishdan manfaatdor davlatga aylanadi. Markaziy Osiyo Rossiya uchun strategik mintqa bo‘lganligi sababli MOHTga a’zo bo‘lib kiradi. Rossiyaning MOHTga qo‘shilishi Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikdan so‘ng mintqa miqyosida o‘zaro hamkorlikda tuzgan tashkilotining amalda yo‘qqa chiqayotganini anglatardi. Aslini olganda, Rossiyan Markaziy Osiyo integratsiyasiga jalg etish strategik xato edi. Rossiya astasekinlik bilan MOHTni Yevro-Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati bilan birlashtirishga urinadi.

Oradan ko‘p vaqt o’tmay 2005-yil oktyabrdagi Rossiyaning Sankt-Peturburg shahrida o’tkazilgan MOHT davlat rahbarlari Kengashining so‘ngi sammitida Yevro-Osiyo integratsion jarayonlariga burilish yasagan hodisa yuz beradi. Sammitda MOHTni Yevro-Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga birlashtirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi. Shu voqeadan so‘ng Markaziy Osiyo integratsiyasi tarixga aylandi.

2005-yil fevralda Prezident N.Nazarboev Qozog‘iston halqiga qilgan murojaatnomasida yangicha ko‘rinishdagi Markaziy Osiyo Davlatlari Ittifoqini tuzishni taklif etadi. Uning fikricha 1997-yil yanvarda Bishkekda uch davlat O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston tomonidan imzolangan “Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi” shartnoma mazkur birlashma uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi[17]. Qirg‘iziston Prezidenti A.Akaev mazkur tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydi, biroq 2008-yil O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov Nazarboevning taklifini qattiyan rad etadi. Shu bilan Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy integratsion munosabatlari yakun topadi.

Savol tug‘iladi, nega Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi tarqalib ketdi, nima sababdan ular birlasha olmadi? Savolning javobini turli nuqtai nazarlardan kelib chiqib izohlash mumkin. Ma’lumki, eng asosiy sabablardan biri Markaziy Osiyo davlatlari barpo etayotgan integratsiyaga muqobil ravishda Qozog‘iston tomonidan Yevro-Osiyo Ittifoqi nomli tashkilotni yaratish g‘oyasining taklif etilishidir. Mazkur taklif N.Nazarboev tomonidan 1994-yil 29-martda Moskva davlat universiteti professor o‘qituvchilari va talabalari bilan bo‘lgan uchrashuvda ilk bor ilgari suriladi[18]. Bu tashkilot mohiyatiga ko‘ra siyosiy birlashma bo‘lib postsovets makonida vujudga kelgan iqtisodiy bo‘ronlarni hal etish qobiliyatiga ega emas edi. I.Karimov 1994-yilda Rossiyaning “Nezavisimaya gazetas” muxbirini V.Portnikovga bergen intervyusida N.Nazarboev tomonidan ilgari surilgan Yevro-Osiyo Ittifoqini tuzish g‘oyasi haqida so‘z yuritib shunday deydi: “bu fikrni qattiq turib isbotlashga harakat qilayotganlar Qozog‘iston ichkarisida o‘z reytinglarini oshirishga urinishmoqda, shuningdek, postsovets makonida vujudga kelgan inqirozli holatni siyosiy usullar orqali bartaraf etishni maqsad qilgan. Ammo men bu masalalarni siyosiy vositalar orqali hal etilishiga qatiyan qarshiman. Bu masalalar tadrijiy yo‘l bilan yechilishi tarafdiriman”[19]. I.Karimovning fikrlari orqali Yevro-Osiyo konsepsiyasining mohiyatini yaqqol tasavvur etish mumkin. Mazkur g‘oyani yaratuvchilarining asosiy maqsadi integratsion jarayonlarda Qozog‘istonning geografik jihatdan yadro davlatga aylantirish bo‘lgan. Solishtiradigan bo‘lsak Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotida O‘zbekiston geografik joylashuvga ko‘ra markaz davlat hisoblanardi. Bu esa ko‘pincha Qozog‘iston uchun maqbul bo‘limgan.

Ikkinchidan, XXI asrning boshlarida Qozog‘istonda “Evro-Osiyo” nomli tashqi siyosiy yo‘nalish g‘oyasi paydo bo‘lib mustahkamlanib borgan[20]. Mazkur tashqi siyosat yo‘nalishi natijasida Qozog‘istonning Markaziy Osiyo integratsiyasidan uzoqlashish holati yuz berdi. Yevro-Osiyo tashqi siyosat kursi tarafdarlarining ta‘biriga ko‘ra: “Qozog‘iston geografik jihatdan Markaziy Osiyo bilan chegaradosh, ammo u Markaziy Osiyo davlati emas. Biz – Yevropa va g‘arb qadriyatlar kuchli ta’sir ko‘rsatgan yevro-osiyo mamlakatimiz. Bizning tarixiy yo‘nalishlarimiz – Saudiya Arabistoni emas, balki Norvegiya va Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlardir”[21]. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, mustaqillikdan o‘n yil o‘tib Qozog‘iston tashqi siyosatida markaziy Osiyo birinchi ustuvor mintqa sifatida o‘z o‘rnini yo‘qotib boradi. Bu esa Markaziy Osiyo integratsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishni anglatardi.

Uchinchidan, Qozog'iston tashqi siyosatida asta-sekinlik bilan Markaziy Osiyodan o'girilib Rossiya tomon og'ish holati yuz beradi. Buning birlamchi sababi Qozog'iston Rossiya bilan juda ham uzun chegaraga (7 591 km)[22] ega ekanligi bilan izohlanib, 90-yillarning oxiriga kelib aholisining deyarli yarmini ruslar tashkil etgan Qozog'iston Rossiyaning kuchli bosimi ostida qoladi. 1997-yil 4-dekabrda jurnalistlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda N.Nazarboev Rossiya bilan aloqalar xususida to'xtalib shunday deydi: "biz Rossiya bilan xudo tomonidan aniqlangan qo'shnilar bo'lib 7 ming kilometr chegaraga egamiz, mening o'rnimda bo'lgan har qanday siyosatchi bu faktni hisobga olmasdan qolmasdi. Rossiya bilan hamkorlik biz uchun har tomonlama foydali bo'lib, bizning tovarlarimiz uchun juda katta bozor hisoblanadi"[23]. Darhaqiqat, Rossiya vektori Qozog'iston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etib, mustahkamlanib bordi.

Eslatib o'tish lozimki, Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida O'zbekiston va Qozog'iston drayver mamlakatlar hisoblangan bo'lsada, ular o'z vazifalarini to'laqonli amalga oshira olmaydi. Davlatlar o'rtasida bir-biriga ishonch darajasi nihoyatda past bo'lib, o'tkazilgan sammmitlarda imzo chekilgan sharhnomalar ko'pincha ijro etilmasdan qoladi. Bu esa o'z navbatida o'zaro kelishuv va sharhnomalarni deklarativ tusga kirishiga olib keladi. Oksford universiteti global va hududiy tadqiqotlar maktabi professori Roy Allison Markaziy Osiyoning mintaqqa sifatida o'zligini anglashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning sabablari xususida so'z yuritib quyidagilarni xulosa qiladi[24]. Birinchidan, davlat salohiyati – davlatlarning ma'muriy, iqtisodiy va boshqa imkoniyatlari – mintaqaviy miqyosda maqsadli loyihalarni amalga oshirish uchun jiddiy muammo bo'lib kelgan. Salohiyat darajasi borasida Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida katta tafovvtular majud edi. Ikkinchidan, g'oyaviy omillar Markaziy Osiyo davlatlarining milliy o'zlikni anglash va suverenitetni mustahkamlash borasidagi xatti-harakatlariga markazlashtiruvchi ta'sir ko'rsatdi, bu davlatlarni birgalikda emas, balki bir-birlaridan ajralgan holda harakat qilishlariga olib keldi. Bu esa davlat rahbarlari tomonidan mintaqaviy umumiyy manfaatlar va o'zaro o'xshash jihatlarni izlashga to'sqinlik qildi hamda chuqurroq hamkorlik munosabatlarini amalga oshirish masalalarini qiyinlashtirdi. 1990 – 2000-yillar davomida davlatlar o'rtasida turli xil ichki mintaqaviy ziddiyatlar saqlanib qoldi. Uchinchidan, iqtisodiy va savdo to'siqlarini yengib o'tish kerak edi. Ammo Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bu borada umumiyy manfaatlardan ko'ra o'z davlatlarining milliy manfaatlarini ustun qo'yishga intilgan. Shunindek, asosiy to'siqlardan biri Sovet Ittifoqi davrida shakllangan transport infratuzilmasining ta'siri edi. Ammo bundanda chuqurroq muammo shunda ediki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy va savdo aloqalari bir-birini to'ldirmagan balki raqobatbardosh bo'lgan. To'rtinchidan, Markaziy Osiyodagi mintaqaviylik qudratli davlatlar, Rossiya, AQSh va Xitoyning raqobatbardosh kuch munosabatlari tufayli zaiflashdi. Bu Markaziy Osiyo davlatlarini dunyoning qudratli davlatlari bilan aloqalarda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga olib keldi.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan olim Chori Ko'charov mintaqqa davlatlari integratsiyasi ichki muammolari va uning o'ziga xos geosiyosiy va geoijtisodiy jihatlari xususida so'z yuritib quyidagilarni ta'kidlab o'tadi. Mintaqqa davlatlarining umumiyy makroiqtisodiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilmaganligi, milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlari mintaqqa davlatlarining har birida o'ziga xosligi bilan ajralib turishi va uning mintaqadagi qo'shni davlatlardan farq qilganligi sababli mazkur rivojlanish strategiyalari o'rtasida nomutanosibliklarni yuzaga keltirgan[25]. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi yetarli darajada mustahkamlanmagan.

## XULOSA

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlat rahbarlari munosabatlarida bir-birlariga nisbatan ishonch va ochiqlik xususiyatlari juda ham past darajada bo'lib, umummintaqaviy manfaatlardan ko'ra o'z shaxsiy ambitsiyalarini ustun qo'yish holati yuqori bo'lgan. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoev quyidagicha fikr yuritadi: "Ochiqlik va ishonch har doim ham ko'plab rahbarlarga xos emas. Ammo rahbarlar ambitsiyani olib tashlaganlarida, ikki mamlakat halqlari manfaatlari uchun aql ustunlik qiladi, keyin maqsadlarga erishiladi"[26]. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlikning rivojlanishi davlat yetakchilarining o'zaro munosabatlariga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Shu sababli Prezidentlarning o'zaro tez-tez uchrashuvlari davlatlararo munosabatlarning qay darajada ekanligini yaqqol namoyon etgan.

## TARIX

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Karimov. Turkiston – umumiylar uyimiz. Do'stligimiz quyoshi ming yilliklar qa'ridan nur sochadi. Qozog'istonda O'zbekiston kunlarining tantanali ochilishi marosimida so'zlangan nutq. – T.:O'zbekiston. 1995. B.39.( И.Каримов. Туркестан – наш общий дом. Солнце нашей дружбы сияет из глубины тысячелетий. Выступление на церемонии открытия Дней Узбекистана в Казахстане)
2. I.Bobokulov. Central Asia: is there an alternative to regional integration? // Central Asian Survey. (March, June 2006). 75-91.(И.Бобокулов. Центральная Азия: есть ли альтернатива региональной интеграции)
3. I.Karimov. Turkiston – umumiylar uyimiz. Do'stligimiz quyoshi ming yilliklar qa'ridan nur sochadi. Qozog'istonda O'zbekiston kunlarining tantanali ochilishi marosimida so'zlangan nutq. T.:O'zbekiston. 1995. B.40.( И.Каримов. Туркестан – наш общий дом. Солнце нашей дружбы сияет из глубины тысячелетий. Выступление на церемонии открытия Дней Узбекистана в Казахстане)
4. Markaziy Osiyo hamdo'stligida O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining alohida o'rni bor // Halq so'zi. gaz. 1993. 23 iyun. B.1.( Республики Узбекистан и Казахстан занимают особое место в Центральноазиатском Содружестве)
5. O'sha yerdə.
6. К. Ф. Затулин, А. М. Мигранян. СНГ: начало или конец истории. К смене вех. 26 марта 1997 г., Независимая газета. Содружество. <https://zatulin.ru/sng-nachalo-ili-konec-istorii-k-smene-vex/> (K. F. Zatulin, A. M. Migranyan. CIS: the beginning or the end of history. To change milestones. March 26, 1997, Nezavisimaya Gazeta. Commonwealth.)
7. I.Bobokulov. Central Asia: is there an alternative to regional integration? // Central Asian Survey. (March, June 2006). 75-91.
8. Marlene Laruelle and Sebastien Peyrouse. Regional Organisations in Central Asia: Patterns of Interaction, Dilemmas of Efficiency. WORKING PAPER NO.10, 2012. P.8. <https://www.ucentralasia.org/content/downloads/uca-ippa-wp-10-regionalorganizations.pdf> (Марлен Ларюэль и Себастьян Пейруэ. Региональные организации в Центральной Азии: модели взаимодействия, дилеммы эффективности.)
9. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli zona barpo etish to'g'risidagi tashabbusi jahon hamjamiyatida o'zining amaliy ifodasini topdi. Halq so'zi gazetasi. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/1215-yadro-quroldidan-xoli> (Инициатива Президента Узбекистана Ислама Каримова о создании зоны, свободной от ядерного оружия, в Центральной Азии нашла практическое воплощение в мировом сообществе.)
10. Bakhtiyor A. Islamov, The Central Asian States Ten Years After: How to Overcome Traps of Development, Transformation and Globalization (Tokyo: Maruzen Co. Ltd., 2001), p 176.( Исламов Бахтиор А. Государства Центральной Азии десять лет спустя: как преодолеть ловушки развития, трансформации и глобализации)
11. История создания и развития ЕАЭС: от ЕврАзЭС через ТС и ЕЭП. <https://www.rctest.ru/news/istoriya-sozdaniya-i-razvitiya-eaes-ot-evrazes-cherez-ts-i-eeep.html> (History of creation and development)
12. Центральная Азия: вчера, сегодня, завтра. // Правда Востока. 29.12.2001. С.1.(\_Central Asia: yesterday, today, tomorrow. // Truth of the East)
13. Встреча парламентарии стран-членов ЦАС // Народное слово. 1993. 23 июня. Б.1. (Meeting of the parliamentarians of the CAC member countries // Narodnoe slovo)
14. I.Bobokulov. Central Asia: is there an alternative to regional integration? // Central Asian Survey. (March, June 2006). P.75-91.
15. Roy Allison. Challenges and prospects for Central Asian regionalism. Uzbekistan in the context of Regional Security and Global Change, 7-8 November 2019. UWED GCRF COMPASS Conference proceedings February 2020. P.3. (Рой Эллисон. Вызовы и перспективы центральноазиатского регионализма. Узбекистан в контексте региональной безопасности и глобальных изменений)
16. На пути мира, стабильности и прогресса // Правда Востока. 19.10.2004. С.1.(\_On the path of peace, stability and progress // Pravda Vostoka)
17. Официальный сайт Президента Республики Казахстан. Казахстан на пути ускоренной экономической, социальной и политической модернизации. Послание Президента Республики Казахстан Н.А. Назарбаева народу Казахстана. Февраль 2005 г. [https://www.akorda.kz/ru/addresses/addresses\\_of\\_president/poslanie-prezidenta-respublik-i-kazakhstan-na-nazarbaeva-narodu-kazakhstan-fevral-2005-g](https://www.akorda.kz/ru/addresses/addresses_of_president/poslanie-prezidenta-respublik-i-kazakhstan-na-nazarbaeva-narodu-kazakhstan-fevral-2005-g) (. Official website of the President of the Republic of Kazakhstan. Kazakhstan is on the way of accelerated economic, social and political modernization. Message of the President of the Republic of Kazakhstan N.A. Nazarbayev to the people of Kazakhstan.)
18. Н.Назарбаев. Евразийский союз: идеи, практика, перспективы 1994-1997. – Москва:. Фонд содействия развитию социальных и политических наук. – 1997. С.32.( N. Nazarbayev. Eurasian Union: Ideas, Practice, Prospects 1994-1997. - Moscow:. Foundation for the Promotion of the Development of Social and Political Sciences.)
19. O'sha yerdə. B.65.
20. Ф.Толипов. Центральная Азия – это пять “станов”. Полемика с казахскими евразийцами. Центральная Азия и Кавказ. № 2(44). 2006. С. 18-29. (F. Tolipov. Central Asia is five “stans”. Controversy with Kazakh Eurasians. Central Asia and the Caucasus.)
21. Д.Назарбаева. специфика и перспективы политического развития Казахстана. Бюллетең №3, 2003 // Международный институт современной политики, на сайте МИСП [[http://iimp.kz/index.php?action=show&art\\_id=150&from=5](http://iimp.kz/index.php?action=show&art_id=150&from=5)], 17 February, 2006.( D. Nazarbayeva. specificity and prospects of political development of Kazakhstan. Bulletin No. 3, 2003 // International Institute of Contemporary Politics, on the IISP website)

22. Республика Казахстан. Официальный сайт Президента Республики Казахстан.  
[https://www.akorda.kz/ru/republic\\_of\\_kazakhstan/kazakhstan](https://www.akorda.kz/ru/republic_of_kazakhstan/kazakhstan) (Republic of Kazakhstan. Official website of the President of the Republic of Kazakhstan)
23. Tashqi ishlar vazirligi joriy arxivi materiallari. Delo № 083. B.26.(Материалы действующего архива МИД.)
24. Roy Allison. Challenges and prospects for Central Asian regionalism. Uzbekistan in the context of Regional Security and Global Change, 7-8 November 2019. UWED GCRF COMPASS Conference proceedings February 2020. P.5.(\_Рой Эллисон. Вызовы и перспективы центральноазиатского регионализма. Узбекистан в контексте региональной безопасности и глобальных изменений, 7-8 ноября 2019 г. UWED GCRF COMPASS Материалы конференции, февраль)
25. Ch.Ko'charov. Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari// Dissertatsiya avtoreferati. Siyosiy fanlar doktori. – Toshkent. 2008. –19-bet.( Ч. Кочаров. Проблемы центральноазиатского регионального интеграционного процесса)
26. Ш.Мирзиёев. Руководители приходят и уходят, но народы остаются //  
<https://www.gazeta.uz/ru/2017/10/06/talks/> (Sh. Mirziyoyev. Leaders come and go but nations remain)